

## ZAMONAVIY SIVILIZATSIYADA AXBOROTNING STRATEGIK RESURSGA AYLANISHI

Gulboyev Bobir

Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

*Annotatsiya: Maqolada jamiyatni axborotlashtirish jarayoni sivilizatsiyaning o'ziga xos elementi sifatida tahlil qilingan. Zamonaviy taraqqiyot natijasida axborot olamida yuz berayotgan tub o'zgarishlar haqida fikr-mulohazalar bildirilgan.*

*Kalit so'zlar: Axborot, sivilizatsiya, globallashtirish, axborotlashgan jamiyat, axborot nakoni, mediatizatsiya, kompyuterlashtirish, intellektualizatsiya.*

## ПРЕВРАЩЕНИЕ ИНФОРМАЦИИ В СТРАТЕГИЧЕСКИЙ РЕСУРС В СОВРЕМЕННОЙ ЦИВИЛИЗАЦИИ

Гульбоев Бабир

Независимый научный сотрудник Каршинского государственного университета

*Аннотация: В статье анализируется процесс информатизации общества как уникального элемента цивилизации. В результате современного развития высказывались мнения о коренных изменениях, происходящих в мире информации.*

*Ключевые слова: Информация, цивилизация, глобализация, информационное общество, информационное общество, медиатизация, компьютеризация, интеллектуализация.*

## TRANSFORMATION OF INFORMATION INTO A STRATEGIC RESOURCE IN MODERN CIVILIZATION

Gulboyev Babir

Independent researcher of Karshi State University

*Abstract. The article analyzes the process of informatization of society as a unique element of civilization. As a result of modern development, opinions were expressed about fundamental changes taking place in the world of information.*

*Key words: Information, civilization, globalization, information society, information society, mediatization, computerization, intellectualization.*

**KIRISH.** Axborot va axborotlashtirish masalalari, ularning jamiyat hayotining turli sohalariga ta'siri ko'pgina olimlar, faylasuflar, tadqiqotchilar va mutaxassislarining doimiy e'tiborida bo'lib kelgan. Texnik vositalar va qurilmalar asosida axborot almashish o'zining tezkorligi, arzonligi va vaqt tejamkorligi kabi qulayliklari bilan katta taraqqiyotga erishdi. Yagona axborot maydoni vujudga kelishi xalqlar va butun insoniyat taqdirini bir-biriga bog'lab qo'ydi. Axborot insonlarning ichki, ruhiy va tafakkur olamini boyituvchi yoki tanazzulga etaklavchi bosh omil bo'lib ulgurdi. Bugun insonlar o'z hayotiy qiziqishlarini aynan yagona axborot makoni (maydoni) orqali yuzaga chiqarmoqda. O'zaro aloqalar, moddiy va ma'naviy almashinuv, yagona axborot maydonida qo'llanayotgan yangi texnik vositalarga avvalo internetga bog'liq bo'lib qoldi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR.** XX asrning oxiri - XXI asrning boshlarida dunyo xalqlarining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hayotida, shuningdek, tabiatida yuz berayotgan global o'zgarishlar bugungi jamiyatni "Axborotlashgan jamiyat" deb atashga asos bo'lmoqda. Bugungi kunda axborotlashgan jamiyat tushunchasiga berilgan ta'riflarni ko'plab uchratish mumkin. "Axborotlashgan jamiyat – ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, eng avvalo, axborotni ishlab chiqarish, unga ishlov berish, saqlash va jamiyat a'zolariga etkazish bilan bog'liq bo'ladigan jamiyatdir" [1;32], "Axborotlashgan jamiyat, ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishdagi mehnat qiluvchilarning, fan va madaniyat vakillarining axborot, ayniqsa, uning oliy shakli bo'lmish, dunyoviy bilimlar majmuini shakllantirish, yaratish, saqlash, qayta ishlash va xalqaro bozorda sotishni amalga oshirish bilan mashg'ul bo'lgan jamiyatdir"[2;60],- degan tariflar berilgan. Hozirgi zamon ilm-fan va texnika yutuqlari esa axborotga bo'lgan talab va ehtiyojni juda oshirdi. Dunyo miqyosida globallashtirish va boshqa obyektiv zarurat tufayli yagona axborot maydonining (makonining) vujudga kelishi ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning qonuniyatidir. Yagona axborot maydoni – obyektiv va zaruriy ijtimoiy hodisa. U kimningdir, qaysidir guruhlarining, manfaatdor kuchlarning xohish-istagi tufayli paydo bo'lgani yo'q. Yagona axborot maydoni milliy chegaralarni bilmaydi, uni sun'iy toraytirish va cheklash imkonsiz. Axborotlashgan jamiyatni ijtimoiy fenomen tarzda tushuntirib berish masalalari D.Bell, A.Tofeller, M.Kastels, U.Rostou, P.Draker, I.

Masuda kabi olimlarning asarlarida batafsil yoritilgan. Bugun yoshlarimiz radio, televideniye, matbuot va internet orqali har xil ma'lumotlar, axborotlar olayotganiga fikr bildirib, Islom Karimov adolatli ta'kidlaganidek: "Jahon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan bir sharoitda bolalarimizning ongini faqat o'rab chirmab, uni o'qima, buni ko'rma, deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofni temir devor bilan o'rab olish, hech shubhasiz, zamonning talabiga ham, bizning ezgu maqsad-muddaolarimizga ham to'g'ri kelmaydi...biz davlatimiz kelajagini o'z qobig'imizga o'ralib qolgan holda emas, balki umumbashariy va demokratik qadriyatlarni chuqur o'zlashtirgan holda tasavvur etamiz"[3;114].

"Axborotlashgan jamiyat" atamasi dastlab Yaponiyada vujudga kelgan. Yapon faylasuf olimi Y.Xayashi 1969 yilda Yaponiya hukumatiga "Yaponiya axborotlashgan jamiyat birdamligi siyosatiga chizgilar", 1971 yilgi "Axborotlashgan jamiyat rejasi" kabi tadqiqotlarini taqdim etdi. 1971 yildan boshlab mazkur tushuncha ilmiy jamoatchilik tomonidan keng qo'llanila boshladi. Y.Xayashi firicha, moddiy mahsulot emas, axborotlashuv mahsuloti jamiyatning shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi kuchiga aylandi.

To'g'ri, axborotlashgan jamiyatning mazmun-mohiyati haqida olimlar tomonidan turli xil qarshlar, g'oyalar, nazariyalar ilgari surilgan. Shular ichida M.Kastelsning fikri diqqatga sazovordir. Uningcha, axborotlashgan jamiyat mohiyatini bir-biri bilan bog'liq bo'lgan quyidagi jarayonlar belgilaydi: axborot va bilimlar ijtimoiy-iqtisodiy, texnologik va madaniy rivojlanishining haqiqiy o'zak qudratiga, u qimmatli manbaga aylanadi: ishlab chiqarishning omili bo'lmish xom ashyo, mehnat, mablag'; resurslarga tenglashtirilgan axborot va bilm bozorlari shakllana boshlaydi; axborot etkazib berish va undan foydalanishni ta'minlovchi sohalar ahamiyati shiddatli tarzda osha boradi.

Jamiyatni axborotlashtirish jarayoni bir-biri bilan bog'liq bo'lgan uch qismdan tarkib topadi:

Mediatizatsiya- axborotni to'plash, saqlash va tarqatish vositalarini takomillashtirish jarayoni;

Kompyuterlashtirish- axborotni izlash va unga ishlov berish vositalarini takomillashtirish jarayoni;

Intellektualizatsiya- axborotni yaratish va uni idrok etish qobiliyatini rivojlantirish, ya'ni jamiyatning intellektual salohiyatini oshirish, shu jumladan, sun'iy intellektdan foydalanish jarayoni.

Globalashuv va fanning bevosita ishlab chiqarish kuchiga aylanishi, texnologiyalarning yangilanishining tezlashuvi, "axborot portlashi", ijobiy va salbiy mazmundagi axborotlar o'rtasidagi chegaraning yanada nisbiylashib, ko'p hollarda yo'qolib, ekletik xarakterdagi axborotlar ko'payib borayotgani dunyo miqyosida axborotni tizimlashtirishni, xalqaro internet tarmog'ini ijobiy yo'nalishda yanada rivojlantirishni taqozo etmoqda. Xalqaro miqyosda kiberxavfsizlik, axborot xavfsizligi bo'yicha samarali hamkorlikni yo'lga qo'yib, huquqiy (xalqaro va milliy huquq) jihatdan mustahkamlash har tomonlama dolzarb muammoga aylandi. Xalqaro miqyosda so'z erkinligini, axborot olish erkinligini va huquqili, vijdon va e'tiqod erkinligini ekstremizm, terrorizmni targ'ib etishning oldini olish zarurligi bilan bog'lab yangicha talqin etish maqsadga muvofiqdir. Ushbu tushunchalarning yarimasr avvalgi talqini bugungi globalashuv, axborot texnologiyalari va xalqaro ziddiyatlarning kuchaygan davri talablariga etarlicha javob bermay qoldi.

Axborot orqali insonlarning bilim olishi eng qadimdan mavjud. U bu atrof-muhitni o'rganishdan boshlangan. Ilgari insoniyat o'zaro keskin ziddiyatlarda qurol-yarog'ning turli ko'rinishlaridan foydalangan. Urush xavfi hammaning ko'ziga yaqqol ko'rinib turgan sifatlarda namoyon bo'lgan. Endi davr o'zgardi. Garchi qurolli to'qnashuvlar xavfi to'liq bartaraf etilmasada, axborot urishi tobora keng tarqalmoqda. Hatto "gibrid urushi" tushunchasi paydo bo'ldi. Gibrit urushda feyk axborotlarni tarqatish, axborot orqali psixologik bosim o'tkazish, jahon jamiyatchiligini chalg'itish iqtisodiy sanksiyalar va qurolli tahdid qatorida asosiy vositaga aylanib ulgurdi. "Bugungi kundagi eng katta xavf insonlarning qalbi va ongini egallash uchun uzluksiz davom etayotgan mafkuraviy kurash tusini oldi. «Axborot» so'zi biror ish holati yoki kishi faoliyati haqida ma'lum qilish, xabar berish, biror narsa haqidagi ma'lumot, degan ma'noni anglatadi amerikalik olim R.Xartli birinchi bo'lib "axborot" tushunchasini ilmiy muomilaga kiritdi"[335-336]. Bundan tashqari axborotning qidirish va uni etkazish tizimlari ustida ham ishlar olib borildi. Masalan, Shenon "axborot" deganda fundamental, birlamchi va mazmunga boy kategoriyani nazarda tutagan[5;166].

Internetdagi axborotlarning geometrik progressiyada o'sishi ularni tizimlashtirish qatorida internet tarmog'ini buzg'unchi g'oyalardan, terrorizm va ekstremizmni targ'ib etuvchi axborotdan tozalashni, himoyalashni dolzarblashtirmoqda. Bu borada xalqaro huquq tizimi takomillashuvi, qonun yo'li bilan internet tizimiga axborotlarni joylashtirish masalalari tartibga solinishi zarur. Mamlakatlar o'rtasida ham, internetning Google, Facebook va boshqa tarmoqlari egalari va pravayderlari bilan ham axborotlarni sistemalashtirish, tarmoqni qo'poruvchilik, ekstremistik, pornografik mazmundagi axborotdan himoyalash borasida kelishuvlarga erishish zarur. "Bugungi dunyoda mislsiz ilmiy kashfiyotlar, ulkan texnikaviy imkoniyatlar, universal texnologiyalar, axborot

tarqatishning globallashuvi, ya'ni ularni butun er sayyorasi qamrab olish jarayoni shiddat bilan bormoqda. Internet tizimi orqali axborot almashuv, binobarin, g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlari ham tobora kengaymoqda. Aslida axborot sohasidagi globallashuv insoniyat uchun, dunyoning barcha hududlaridagi odamlarning o'zaro muloqoti uchun, ilm-fan va madaniy boyliklarni o'zlashtirish uchun ulkan imkoniyatlar yaratadigan jarayondir"[6;23].

Internet saytlaridan tarqatilayotgan xar xil yot g'oyalar va axborotlarni yoshlar tomonidan qabul qilinayotganligi va uning oqibatlarini jahondagi barcha mamlakatlar xalqlarini ham tashvishga solmokda. Internet madaniyati (internet foydalanuvchilarining kibermadaniyati) deganda, shuningdek, ijtimoiy ongga salbiy ta'sir etuvchi, jumladan, amaldagi davlat tuzumiga qarshi qaratilgan noxolis xarakterdagi, diniy ekstremistik, terroristik, pornografik va boshqa mazmundagi axborotlarni tarqatuvchi saytlardan foydalanishning ongli ravishda cheklanilishi tushuniladi[7;170]. Bu jarayonlarni oldini olish borasida prezidentimiz shunday deydi: "Bizning eng katta boyligimiz-bu xalqimizning ulkan intellektual va ma'naviy salohiyatidir"[8].

Yagona axborot maydonida axborot jamiyati - bu jamiyat rivojlanishining bosqichi bo'lib, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish hayotning barcha asosiy ijtimoiy sohalari va institutlariga sezilarli ta'sir ko'rsatganda: davlat boshqaruvi, ijtimoiy xizmatlar va tibbiyot, iqtisodiyot va biznes, madaniyat va san'at hamda ta'lim. Aloqa vositalari - telefoniya, radio, televidenie, Internet, an'anaviy va elektron ommaviy axborot vositalari - axborot jamiyatining texnologik asosidir. Keling, axborot jamiyati hayotimizning turli sohalarida o'zini qanday namoyon qilishi mumkinligini ko'rib chiqamiz. Iqtisodiy: axborot resurs, xizmat, mahsulot, qo'shimcha qiymat va ish bilan ta'minlash manbai sifatida ishlatiladi va elektron biznes rivojlanmoqda. Boshqa mintaqadan biznes sherigiga vakil yuborishning hojati yo'q, hujjatlar elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan. Mahsulot tanlashda vaqtni behuda sarflashning hojati yo'q, faqat elektron do'kon katalogini ko'rib chiqing. Soliq deklaratsiyalarini topshirish uchun soliq idorasiga tashrif buyurishingiz shart emas. Ishni bajarish uchun yo'lda vaqt sarflashning hojati yo'q (ba'zi professional faoliyat uchun). Poezd chiptasini sotib olish uchun kassaga borishingiz shart emas, faqat buyurtma qilishingiz va masofadan turib to'lashingiz kerak. Siyosiy: elektron demokratiya, elektron hukumat, elektron hukumat rivojlanishiga olib keladigan axborot erkinligi. Muayyan masala bo'yicha o'z fikringizni bildirish yoki har qanday tashabbusni amalga oshirish uchun o'xshash fikrlaydigan odamlar guruhini shakllantirish uchun Internetdagi tegishli veb-saytga kirish kifoya. Davlat xizmatini olish uchun so'rov shaklini masofadan to'ldirish va ma'lum vaqtdan so'ng pochta qutingizga kerakli hujjatni olish kifoya.

XULOSA. Axborotlashgan jamiyat oldingi jamiyatlardan moddiy omillar bilan emas, balki ma'naviy omillar - bilm va axborot birinchi o'rniga qo'yilishi bilan tubdan farq qiladi. Axborotlashgan jamiyatda nafaqat turmush tarzi, ma'naviy qadriyatlar tizimi o'zgaradi, moddiy boyliklarga faqat jamg'arma sifatida qarashlar o'rniga madaniy hordiq chiqarish, intellektual boylik ortish vositasi sifatida yondashuvning ahamiyati ortadi. Eng asosiy jihati jamiyatning akasariyat a'zolari axborot bilan band bo'ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Falsafa: Ensiklopedik lug'at.-T."O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2008.-B-32.

Abdimalikov A. Fuqarolik jamiyatida shaxs information madaniyatini shakllantirish: monografiya.-T.:Fan, 2016.-60.

Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch. 114-bet.

Hartley R.V.L. Transmission of Information. Bell System Technical Journal, 1928. Issue 7.335-363.

Шенон К. Статистическая теория передачи сигналов // Теория передачи электрических сигналов при наличии помех. М., 1953.-С.166.

Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. -Toshkent: O'zbekiston, 2001, 23-bet.

Otamuratov A. Axborot xurujlariga qarshi kurashning o'ziga xos jihatlari. // "Ma'naviy tahdidlarga qarshi kurashish mexanizmlarini takomillashtirish - xavfsizlikni ta'minlash omili sifatida" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. -Toshkent: 20 noyabr 2019 yil. -170 b.

Shavkat Mirziyoyev. "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi 2017-yil ma'ruzasidan.